

Ikkinchi umrdir yashashdan murod

Ezgu amallari, qoldirgan kitoblari, solih farzandlari, el-yurt manfaati uchun qazdirgan ariq, qurdirgan imoratlari bor bo'lgan insonning umri barhayotlik belgisi. O'z umri va iste'dodini xalqining manfaati va vatan ravnaqi uchun baxshida etgan Abdulla Oripov ham boqiylikka nishondir. Bundan to'rt yil muqaddam xuddi shu kuni Abdulla Oripov dorulfanodan dorulbaqoga rihlat qilgan edilar. Xalq shoiri Abdulla Oripov manguликka muhrlangan siymolardandir. Shoir e'tirof etganidek, ikkinchi umrni yashash hammaga ham nasib etavermaydi.

Inson tirikligi jismi bilanmas,
Ming yilga daxldor tinglang bir nafas,
Ezgu ishlarini el-yurt qilsa yod,
Ikkinchi umrdir yashashdan murod.

Xuddi shu xotirlash niyatida Abdulla Oripov ijod va hayot faoliyatini chuqurroq o'rganish, talaba-yoshlar va professor-o'qituvchilarda qiziqishini orttirish maqsadida 2020-yilning 5-noyabr kuni "Adiblar xiyobonida" O'zbekiston qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri, Abdulla Oripovni yodlab adibning olamdan o'tgan kuni munosabati bilan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Qishloq va suv xo'jaligini energiya ta'minoti" fakulteti jamoasi, talaba-yoshlari va prorektor Ruzimurat Choriev, fakultet dekani Abusaid Isakovlar rahbarligida "Adiblar xiyoboni"ga tashrif buyurishdi. Dastavval, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi jamoasi, so'ngra institutimiz ahli shoir monumenti poyiga gul qo'yish marosimini o'tkazishdi. So'ngra ma'naviy-ma'rifiy kecha boshlandi. Tadbirni O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi, institutimiz matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov olib bordi. Tadbir avvalida O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining raisi, senator, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Said ustozlari Abdulla Oripov haqidagi xotirotlari bilan o'rtoqlashdi. Adibning xayot va ijod yo'lida she'riyatga bo'lgan muxabbatini va mulohazalarini bildirib o'tdi.



So'ngra filologiya fanlari doktori professor Nurboy Jabborov, adibning qizi tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent Shoira Oripova, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Oliy majlis deputati Farida Afruz, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi Farog'atXudoyqulovalar ulug' shoir hayoti va ijodiyotining turli qirralari haqida so'z yuritishdi. Institut professori Ra'no opa Gazievaning shoir she'rlari haqidagi mulohazalari barchaga birdek ma'qul bo'ldi. Shundan sung fakul'tetimizning talabalari o'zlarining ijodidan ayni paytda ulug' shoirimiz Abdulla Oripov qalamiga mansub bo'lgan she'rlardan o'qishdi va haykal poyiga gul quyishdi.



Tadbir yakunida institut prorektori Ruzimurat Choriev ishtirokchi mehmonlarga va tadbir tashkilotchilariga o'zining samimiy minnatdorchiligini bildirib shoir she'riyatini targ'ib etishda bardavom ekanligini qayd eti. Ayniqsa, institut rahbariyatining tashabbusi bilan Abdulla Oripov nomidagi ko'krak nishonining ta'sis etilgani haqidagi xabar va uning barchaga namoyish qilinishi yig'ilganlarni to'lqinlantirib yubordi. Fakultet dekani A. Isakov o'z jamoasi bilan shoirning xonadoniga borib, adibning rafiqalari Hanifa aya holidan xabar olib samimiy dil istaklarini bildirib qaytishgani ham xayrli bo'ldi.

TIQXMMI matbuot xizmati